

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkan Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O’RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI: BAG’RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: “SHUM BOLA” ASARINING O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO’ZLASHUV NUTQIDA SO’Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G’OYAVIY-MAZMUNIIY MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSALARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отлубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlar ijrosini ta'minlashning XORIJIIY MODELLARI VA MILLIIY AMALIYOT UCHUN XULOSALAR	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SCIENCE**Received:** 16 February 2026**Accepted:** 01 March 2026**Published:** 15 March 2026*Article / Original Paper***DIDACTIC REQUIREMENTS FOR DEVELOPING CREATIVE COMPETENCE
IN DIGITAL EDUCATION****Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna,**
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc)
Uzbek State University of World Languages

Abstract. The article analyzes the necessity of developing creative competence in professional activity, its theoretical foundations, and didactic requirements. The role of creativity in ensuring professional competitiveness in an innovative economy is substantiated.

Keywords: creativity, competence, professional activity, didactic requirements, innovative education.

**RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING
DIDAKTIK TALABLARI****Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna,**
pedagogika fanlari doktori (DSc)
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
<https://orcid.org/0009-0000-8371-6298>
Email: m.jumaniyozova@uzswlu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada kasbiy faoliyat jarayonida kreativ kompetentlikni rivojlantirishning dolzarbligi, uning nazariy-metodologik asoslari hamda didaktik talablari tahlil qilinadi. Zamonaviy globallashuv, raqamlashtirish va innovatsion iqtisodiyot sharoitida mutaxassisning raqobatbardoshligi ko'p jihatdan uning kreativ fikrlash, muammolarni nostandart hal etish va innovatsion qarorlar qabul qilish qobiliyatiga bog'liq. Maqolada kreativ kompetentlikning tarkibiy komponentlari, uni shakllantirish bosqichlari hamda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan samarali pedagogik texnologiyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, kompetentlik, kasbiy faoliyat, didaktik talablar, innovatsiya, pedagogik texnologiya, kreativ fikrlash.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N48>

Kirish. XXI asrda ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgardi. Bugungi kunda jamiyatga faqat bilimga ega mutaxassis emas, balki mustaqil fikrlay oladigan, yangilik yaratishga qodir, moslashuvchan va kreativ shaxs zarur. Xususan, UNESCO va OECD tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro hujjatlarda ham XXI asr ko'nikmalari tarkibida kreativlik muhim o'rin egallashi ta'kidlangan. Shu nuqtai nazardan, kasbiy faoliyatda kreativ kompetentlikni rivojlantirish masalasi dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. "Kreativlik" tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda kreativlik divergent fikrlash, moslashuvchanlik, originallik hamda innovatsion yechimlar ishlab chiqish qobiliyati bilan bog'lanadi. Kreativ kompetentlikni shakllantirishning metodologik,

ilmiy-nazariy va amaliy jihatlar bugungi kunda psixologiya, pedagogika va tashkiliy tadqiqotlarni birlashtiruvchi fanlararo yondashuv asosida o'rganilmoqda. Tadqiqotchilar tobora kreativ kompetentlikni tug'ma xususiyat emas, balki ta'lim muhiti, o'qitish strategiyalari va ijtimoiy-madaniy omillar ta'sirida shakllanuvchi dinamik konstrukt sifatida talqin qilmoqdalar.

Adabiyotlar tahlil va metodologiya. Mazkur yo'nalishdagi dastlabki fundamental tadqiqotlar muallifi J. P. Guilford kreativlikni divergent tafakkur bilan bog'lagan va kreativlikning asosiy tarkibiy qismi sifatida divergent tafakkur tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan bo'lsa [1], E. Torrance uni shaxsning muammoga nisbatan sezgirligi, g'oyalar oqimining tezligi va originalligi bilan izohlaydi hamda ijodiy tafakkurni baholashning standartlashtirilgan metodikalarini ishlab chiqib, kreativlikning ravonlik, moslashuvchanlik, originallik va batafsillik kabi o'lchanadigan ko'rsatkichlarini asoslaydi [2]. So'nggi o'n yilliklardagi ilmiy adabiyotlarga murojaat qilish shuni ko'rsatadiki, kreativlik, ijodiy qobiliyatlar va ijodiy tafakkur muammosi xorijiy hamda mahalliy olimlar ishlarida keng yoritilgan va kreativlik nafaqat shaxsning psixologik xususiyati, balki globallashuv, raqamli transformatsiya va bilimlarga asoslangan iqtisodiyot sharoitida zarur bo'lgan muhim kasbiy kompetensiya sifatida talqin qilinganligini ko'ramiz.

Yangi ilmiy yondashuv sifatida kreativlik, innovatsion qarorlar qabul qilish va tanqidiy fikrlashni XXI asrning muhim ko'nikmalari sifatida qaraladigan "soft skills" (yumshoq ko'nikmalar) doirasida o'rganishdir. OECD hamda UNESCO kabi xalqaro tashkilotlar kreativlikni barqaror rivojlanish va uzluksiz ta'lim uchun zarur bo'lgan asosiy kompetensiyalardan biri sifatida e'tirof etadi. Mazkur yondashuvda kreativlik alohida qobiliyat emas, balki kognitiv, motivatsion va ijtimoiy komponentlarni birlashtiruvchi integrativ kompetensiya sifatida talqin qilinadi.

V. M. Cojocariu, [7] tadqiqotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, "inson doimo ijodiy o'zini namoyon etishga intilib kelgan". Mualliflar kreativ qobiliyatlarni umumiy iqtidorlilikka mos keluvchi va yuqori samarali intellektual faoliyatning zarur sharti bo'lgan xususiyat sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, ijod jarayonida shaxs tizim sifatida uyg'unlashadi, yaratuvchanlik ta'sirida inson avvaliga ichki zo'riqishlardan xalos bo'ladi va tizim elementlari o'rtasida muvozanat va uyg'unlik yuzaga keladi. Mazkur tizimli yondashuv insonparvarlik psixologiyasi namoyandalari Carl Rodgers [4] hamda Abraham Maslow [3] qarashlari bilan hamohangdir. Ular kreativlikni shaxsning o'zini o'zi ro'yobga chiqarishining tabiiy ifodasi sifatida talqin qilganlar.

Iqtidorlilik va kreativlikni o'rganishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarda iqtidorli shaxsning psixologik xususiyatlari: mustaqil fikrlash, ichki motivatsiya, tavakkalchilikka moyillik, yangilikka ochiqlik va yuqori darajadagi kognitiv qiziqish kirishi ta'kidlab o'tilgan. Zamonaviy tadqiqotlar esa kreativlikni metakognitiv boshqaruv va kasbiy kontekstdagi moslashuvchan bilan bog'lab izohlaydi.

Zamonaviy pedagogik modellar kreativlikni muammoli ta'lim, loyiha asosidagi o'qitish, fanlararo integratsiya va refleksiv faoliyat orqali rivojlantirish mumkinligini ko'rsatadi. Psixologik xavfsiz muhit, shaxsiy avtonomiyani qo'llab-quvvatlash hamda hamkorlikka asoslangan ta'lim muhiti kreativlikni sezilarli darajada oshiradi.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar kreativlikni tabiiy iste'dod sifatida emas, balki XXI asrda professional muvaffaqiyatni ta'minlovchi rivojlantiriladigan kompetensiya sifatida talqin

qilishga o'tilganini ko'rsatadi. Mazkur nazariy asos kasbiy ta'lim tizimida kreativ kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan didaktik tizimlarni ishlab chiqish zaruratini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Kasbiy faoliyatida kreativ kompetentlikni shakllantirish masalalari A.Kožuh tomonidan ko'rib chiqilgan [8]. Olimlar kreativ resurslarning tarkibiy qismlarini (shaxsning intellektual qobiliyatlari, shaxsning o'zi, muhit, bilimlar, fikrlash uslubi va motivatsiya) aniqlab berganlar.

So'nggi yillarda pedagogik kreativlik zamonaviy nazariyada faol rivojlanayotgan va ta'lim muassasalari amaliyotiga bosqichma-bosqich joriy etilayotgan kompetensiyaviy yondashuv doirasida ko'rib chiqilishi shaxsning muammoli vaziyatlarni tahlil qila olishi; nostandart yechimlar ishlab chiqishi; innovatsion faoliyat yuritishi; yangi g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatlari majmuasi ekanligi belgilandi.

Kasbiy faoliyatda kreativ kompetentlik kognitiv component-kreativ fikrlash va bilimlar tizimi sifatida, motivatsion component-yangilikka intilish va ichki ehtiyoj sifatida, faoliyat komponenti-amaliy ko'nikma va malakalar, refleksiv component-o'z faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyati kabi tarkibiy komponentlardan iborat.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, quyidagi omillar kreativ kompetentlikni rivojlantirish zaruratini belgilaydi:

mehnat bozoridagi raqobat, zamonaviy mehnat bozori innovatsion fikrlaydigan, moslashuvchan mutaxassislarni talab qilishi;

raqamli transformatsiya, raqamli texnologiyalar sharoitida standart bilimlar tez eskiradi, kreativ yondashuv esa yangicha muammolarni hal qilish imkonini berishi;

innovatsion iqtisodiyot talablari, innovatsion rivojlanish kreativ g'oya va tashabbuslarga tayanishi;

shaxsiy va kasbiy o'sish, kreativ kompetentlik mutaxassisning o'zini namoyon etishi va professional identifikatsiyasini mustahkamlaydi.

Muhokama va natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kasbiy faoliyat jarayonida kreativ kompetentlikni rivojlantirish quyidagi didaktik talablarga asoslanishi lozim:

Muammoli ta'lim muhiti yaratish, ya'ni tayyor bilim berish emas, balki muammoli vaziyatlar orqali mustaqil izlanishga yo'naltirish, bunda "Brainstorming", "Case-study", loyiha metodi, debat va trening mashg'ulotlaridan samarali foydalanish talab etiladi;

integrativ yondashuv va fanlararo integratsiya kreativ tafakkurni kengaytiradi;

refleksiv faoliyatni tashkil etish, ya'ni ta'lim oluvchilarda o'z faoliyatini baholash va xatolar ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish;

erkin va psixologik xavfsiz muhitni yaratish, kreativlik qo'llab-quvvatlovchi, tanqiddan xoli va ochiq muloqotga asoslangan muhitda rivojlanadi.

Kreativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish; o'qituvchining kreativ pozitsiyasi; amaliyotga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini tashkil etadi.

Tadqiqotimiz jarayonida universitet talabalari kreativ kompetentligini axborot texnologiyalari yordamida shakllantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlar sifatida jumlasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan foydalanish orqali kreativ muhit yaratish, texnologiyalarni tanlashda nafaqat jamiyat talablari, balki talabaning individual xususiyatlari ham inobatga olinishi lozimligi, raqamli resurslarning (kompyuter grafikasi,

videoroliklar) ta'lim mazmunini emotsional qabul qilishni rag'batlantirish imkoniyatlari, bunga obrazli tasavvur, kadrda asosiy g'oyani ajratib ko'rsatish, dinamik montaj va boshqa vositalar orqali erishish lozimligi aniqlandi. Hozirgi vaqtda "vizual tafakkur" atamasi keng qo'llanilmoqda. U "inson faoliyati bo'lib, uning natijasi yangi obrazlarni yaratish, ma'lum semantik yuklamaga ega bo'lgan yangi vizual shakllarni hosil qilish va bilimlarni ko'rinadigan holga keltirish" sifatida ta'riflanadi.

Raqamli resurslar yordamida ta'lim jarayonida talabalarning kreativ faolligini oshirish quyidagi motivlar bilan belgilanadi:

ta'limni individuallashtirish uchun raqamli resurslarning nihoyatda keng imkoniyatlariga asoslangan talabalarning faol va mustaqil faoliyati uchun maydon yaratish;

kommunikativ aloqalarni ta'minlash, internet orqali makon va vaqt zonalaridagi farqlardan qat'i nazar istalgan shaxs bilan muloqot qilish imkoniyati;

ta'lim materialining yuqori darajadagi vizualligi, ayniqsa jarayonlarni dinamikada modellashtirish, tez yoki juda sekin kechadigan jarayonlarni namoyish etish (vaqt transformatsiyasi imkoniyati), hajmli yoki aksincha mikroskopik obyektlarni ko'rsatish (makon transformatsiyasi imkoniyati);

interaktiv imkoniyatlarning kengayib borishi; ochiqlik va qulaylik kabilar.

Talabani kreativ salohiyatini rivojlantirishda har bir talaba uchun ijodiy jarayonni maqsadli tashkil etish va rag'batlantirish; ochiq o'quv vaziyatlarini yaratish, muqobil fikr va yondashuvlarni ko'rib chiqish; konformizmni bartaraf etish uchun sharoit yaratish; ta'lim jarayonida ijobiy emotsional muhitni shakllantirish hamda stress omillarini kamaytirish muhim bo'ldi. Tadqiqot jarayonida Moodle, Google Classroom kabi ta'lim platformalaridan foydalanildi.

Kreativ ta'limni tavsiflovchi belgilar sifatida talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilganlikdir. Shu bilan birga, o'quv jarayonini tizimli qurish, kreativlikka ijobiy motivatsiya, amaliy ko'nikmalar va nazariy bilimlarning muvozanati, o'qitish metodlarining xilma-xilligi, bilimlarni doimiy rivojlantirish va muammolarni hal etish, shuningdek, talabalarni o'quv dasturlarini shakllantirish jarayonida faol ishtirok etishga yo'naltirish kabi xususiyatlar mavjud.

Kreativ ta'limda talabalarning o'z-o'zini harakatga keltirish, o'z fikrini va yondashuvini asoslash, mustaqil ish, o'zini takomillashtirish, o'zini anglash, o'zini tartibga solish va o'zini namoyon etish muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot davomida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalar orasida kreativ kompetentlikni shakllantirish va ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida kreativ kompetentlikni namoyon etishga tayyorligini baholash mezonlari va indikatorlari aniqlandi. Bular:

motivatsion mezon: ijodiy motivatsiya kasbiy faoliyatda o'zini namoyon etish uchun kreativ bo'lish ehtiyoji, kreativlikni faollashtiruvchi motivlarning mavjudligi, kasbda kreativlikni namoyon etish zarurligini anglash, qiymat yo'nalishlari;

shaxsiy mezon: talabani shaxsiy ijodiy salohiyati, intuitsiya, tasavvur, qiziquvchanlik, original fikrlash, hazil tuyg'usi va optimizm, ijodiy muammolarni hal etish qobiliyati, emotsionallik;

reflektiv ko'nikmalar: o'zini tashkil etish va o'zini ro'yobga chiqarish ko'nikmalari, o'z ijodiy faoliyatini va guruhning kollektiv ijodiy faoliyatini tahlil qilish ko'nikma va malakalari;

kognitiv (bilim) mezon: bilimning samaradorligi, bilimning tabiati va to'liqligi, ya'ni asosiy ijodiy texnikalarni bilish va ularni amaliyotda innovatsion qo'llay olish; ijodiy tafakkur namoyon bo'lishi xususiyatlari, ta'limning informatizatsiya sohasida ijodiy faoliyatni amalga oshirish imkonini beruvchi yetarlilik, moslashuvchanlik, original fikrlash va tezlik;

assotsiativ tafakkur sifatida verbal ijodiylik va divergent tafakkur sifatida noverbal ijodiylik kiradi.

Xulosa. Kreativ kompetentlik tushunchasining mazmuni va asosiy ko'rsatkichlari shaxsning kreativ kompetentligining tuzilmasida ajratilgan sifatlar deb hisoblash maqsadga muvofiq. Shaxsning ijodiy qobiliyatlari va kreativ shaxsga xos xususiyatlarni aniqlashda shaxsning ijodiy fikrlash, bilimni informatizatsiya qilish va innovatsion shaxsiy sifatlarini baholash mezonlari aniq bo'lishi talab etiladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida talabalarda kasbiy faoliyatda kreativ kompetentlikni shakllantirishga tayyorlash uchun ishlab chiqilgan va asoslangan pedagogik shart-sharoitlar talabalarning kreativ kompetentligining tuzilmasida motivatsion, kognitiv, faoliyat va reflektiv kabi komponentlar ajratish lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Guilford J.P. Creativity // American Psychologist. – 1950. – Vol. 5. – P. 444–454.
2. Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. – Lexington: Personnel Press, 1974.
3. Maslow A.H. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1998.
4. Rogers C. On Becoming a Person. – Boston: Houghton Mifflin, 2016.
5. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017.
6. OECD. The Future of Education and Skills 2030. – Paris: OECD Publishing, 2018.
7. Cojocariu, V. M. (2024). A literature review on digital creativity in higher education. *Education Sciences*, 14(11), 1189.
8. Kožuh, A. (2020). Didactic skills in the field of developing creativity and innovativeness of a student. *International Journal of Cognitive Research in Science, Engineering and Education*, 8(1), 69–79.
9. Kuo, H.-C., Yang, K.-Y., Cheng, Y.-Y., Chuang, H.-H., & Chang, C.-C. (2025). Prioritising creativity at the heart of the curriculum: Developing a creative competence scale. *Thinking Skills and Creativity*, 60, 102098.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).